



## HECH KIM HECH QACHON ESDAN CHIQMAYDI

**Meretgeldiyeva Aygul**

NDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti 4-kurs talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8219975>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-July 2023 yil  
Ma'qullandi: 28-July 2023 yil  
Nashr qilindi: 07-August 2023 yil

### KEY WORDS

*urushning halovati, xotira, oliy jasorat, qurbonlarning qabriga ehtirom, ahillik, buyuklarga ehtirom.*

### ABSTRACT

*Buyuk jasoratning eng oliy maqsadi Vatanning saodatidir. Xotiraning abadiy bo'lishi kelajak avlodlarning buyukligidan dalolat beradi. Vatan yo'lida turgan har bir inson ko'klarga ko'tarib ulug'lanadi.*

Xotira – eng buyuk va muqaddas tuyg'udir. Bu tuyg'uni ulug'lash va ko'klarga ko'tarish eng oliy jasoratdir. Sababi, bu tuyg'u bizlarning kelajagimizni charog'on, Vatanimizning ertasini yorug' qilishga behisob hissasini qo'rsatgan. Har bir inson o'z tug'ilib o'sgan yeri uchun jonini berishga ham tayyorligini, biz tarixdan bilamiz, albatda. Bularga misol qilib 1-jahon va 2-jahon urushlarini ko'rsak bo'ladi. Bu urushlarda qanchadan - qancha yurtdoshlarimiz o'z jonlarini qurbon qilishgan. Ularni qancha ulug'lasak ham oz shuncha ozdir. Kichkina bolalardan to qariyalargacha, urushning inson zotiga qanchalik halovat solganligini juda yaxshi bilishadi. Ahli jamoa odamlarning barchasi urushning tez tugashini tilab niyat qilishgan, frontdagilarga yordam sifatida har bir inson qolidan kelgan o'z ishini bajargan. Ayollar kechalari uhlamasdan erkaklarga issiq jempir va paypoqlar to'qishgan. Bolalar uy ishlarida kattalarga yordam berishgan. Bolajonlar savdo – sotiq bilan ham uzoq yerlarga ketib po'chtalyonlik ham kilishgan. Bir gap bilan aytganda, urush paytida har bir inson o'z masuliyatidan tashqari Vatan uchun, o'z xalqi uchun va albatda urushga ketgan jigarbandlari uchun ham doim tik turushgan. Sababi bir tan-u bir jon bo'lish, azaldan keladigan birlik hisoblanadi. Bu birlik esa mana shunday paytlarda mustahkamlanib bo'raveradi.

Qanchadan – qancha chekilgan azob-u uqubatlar, yo'qchiliklar va ularga berilgan sabr-u bardoshlar inson zotini sinab bo'raveradi. Bolajonlarning otalarini naqadar qumsab, kutib yashashlarini ularning yuz – ko'zidan, gapirishidan va xatto savdo – sotiq qilganlardan keyin otalarini kutib, kechqurungacha turishlari va kelmaganlardan keyin ham qanchalik hafa bo'lib ketishlarini tasavvur qilish qiyin. Turkman xalqining yirik nomoyondalaridan biri bo'lgan Halmammet Kakabayevning "Dadam qaytib keladi" degan asarida ham urushning yaqqol nomoyondalarni ko'rishimiz mumkin. Unda yigitlarning Vatan uchun tinimsiz ravishda kurashishlari, ayollarning o'z oilasini boqish zimmasida ekanligi, bolalarning ham og'ir mehnatda yurishlari insonni o'ylantiradi va shukur qilishga chorlaydi. Bu asardagi kichik

qahramonlardan biri Bahorning Vatan himoyasiga ketgan dadasini intiqib kutushlari va dadasiga o'zi hat yo'llashi ham – da qayerda ekanligini topishga qanchalik urunganlari ko'z oldimizda ifodalanadi.

Bahorning mehnatkashligi, hammaga birdek mehribonligi, doimo yaxshilik qilishga intilishlari uning eng yaxsh fazilatlaridan biridir. Onasining erta tongdan turib sigirlarini sog'ishi, Bahorni ertadan erkab turg'izishlari va qolgan ishlarni Bahorga topshirib o'z ishiga shoshilib ketganidan keyin, qolgan barcha ishlarni Bahorning epchilgina yugurishidan keyin onasining tayyorlab qo'ygan sutini sotishga poyezd yo'lga olib ketishi va o'sha yerda odamlarga sutini sotib, keyin poyezddan tushgan odamlarga qarab dadasini tushushini intiqib kutayotgan qizaloqning hayoti shunday ila tasvirlanadi.

Bir kuni Bahor sutini sotib bo'lgach, poyezddan tushayotgan odamlarga qarab turib, bir kishini dadasiga oxshatib yubordi. "Dada, dada, dada jonim dadam " deb yugurib u kishining bag'riga otilishi, yig'lashga majbur etadi kishini. Lekin ming afsuski, u kishining Bahorning dadasi emasligi undan battar odamni ezib yuboradi. U kishi ham Bahorni ko'rib, o'z farzandi esaiga tushganligi ham insonni mehr – muruvvatga chorlaydi.

Lekin Bahor umidini so'ndirmaydi. Dadasining bir kun qaytib kelishiga ishonadi va bundan keyin ham doimo harakat qilib yuradi. Bir kuni Bahor sut sotishga kelayotgan paytida, bir kasalxonaning oldidan o'tayotib, bir kishining chaqirig'ini eshitadi. "Qizaloq, hoy qizaloq yonimga kel, issiqina sutingdan bir ichib beray" deb, bir erkak kishi Bahorni chaqiradi. Bahor u odamning iltimosini yerda qoldirmaydi. Sut ichgan kishi pul berayotgan paytida ham Bahor undan pul olmaydi. Sababi, u va uning yonidagi barcha odamlar urshga qatnashgan va yaradorlar bo'lib, bundan keyin bularning barchasiga o'zining issiqqina sutidan ulshadadi. Bahorning ular oldida aytgan oltinga teng so'zlari mana shunday edi."Yo'q pulingizni olib qo'ying, pulingiz kerak emas, sizlar tezda sog'ayib ketsangalar bo'ldi. Sizlar Vatan uchun buyuk ishlar qilyapsizlar, biz ham sizlarga yordam bermasak, bizning ahilligimiz qayda qoladi." Mana bu so'zlar kasalxonada yotgan barcha insonlarni lol qoldiradi. Endi Bahor har kuni ularga sut eltadigan bo'ldi. Ularning tuzalib ketishini tilab, doimo Vatanimizni qoriqlashga tayyor turishini tilab, kecha – yu kunduz iltijo qilar edi. Kasalxonadagi kishilar Bahorga pulni beraylik desa, Bahor yana " Yo'q, tog'ajonlar kerak emas bizning uyda sigirlarimiz ko'p. Oyim urushga qatnashgan insonlarga qo'ldan kelgancha yordam berishimiz kerakligini aytadilar. Shuning uchun men Vatanimizning faxriylariga o'zgina bo'lsa – da yordam bersam biz urushdan tez halos bo'lamiz, Hudo hohlasa" Bahorning bu so'zlari hammamizni ahillikga chorlaydi. Vatan uchun barchamiz birgalikda hizmat qilishga chaqiradi.

Bahor yanada u kishilardan dadasini topishga yordam so'raydi va bizning qahramonimiz o'z maqsadiga erishadi. Kasalxonadagi mehribon insonlar so'rab-surishtirib, dadasidan kelgan xatni Bahorning qo'lga topshiradilar. Bu holat Bahorni yer – u ko'kka sig'dirmaydi. Dadasidan kelgan xatni quchog'iga olib yugurib uyiga boradi. U baxtli, chunki, u dadasini topdi va uning kelishini intizorlik bilan kutadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir inson Vatan oldida o'z sharaflı burchini bajarishga tayyor turishi kerak. Ahillikda barchamiz Vatanning kelajagi uchun buyuk maqsadlar ila harakat qilishimiz kerak. Bu tinch va osoyishta Vatanni bizlarga yatkazib bergan buyuk zotlarimizga har doim ta'zimdamiz. Ular ila buyukmiz va ulug'miz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Rano Tolipova "Til va adabiyot ta'limi" Toshkent-2004

2.WWW.yotube.uz

3.azkurs.uz

4.fayllar.org



INNOVATIVE  
ACADEMY